

IJTIMOIIY MOBILIG IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdushukurova Vazira Sabirovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shiddat bilan kechayotgan bugungi global modernizasiyalashuv jarayonida yoshlarni ijtimoiylashuvi va innovasion faolligi, yoshlardagi shaxsiy xususiyatlar, fikr va mulohazalari, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida mustaqil fikrlash ko'nikmalari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, modernizasiyalashuv, innobvatsiya, axloqiy qoidalar, ta'lim, ko'nikmalar, shaxsiy xususiyatlar, mustaqil fikrlash, qobiliyat



Ta'lim ijtimoiy mobillikning asosiy omili bo'lib, odamlarga ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni beradi. Pedagogik yondashuvlar va ta'lim siyosatining ijtimoiy mobillikka qanday ta'sir qilishini o'rganish ta'limda tenglikni ta'minlashning samarali strategiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Motivatsiya, o'z-o'zini samaradorligi va chidamlilik kabi psixologik jihatlar shaxsning to'siqlarni engib o'tish va mobillik imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatida muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarni tushunish yoshlarning raqobatbardosh ijtimoiy landshaftda harakat qilish va muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini oshiradigan aralashuvlar va qo'llab-quvvatlash tizimlari haqida ma'lumot beradi.

Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz. Ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart". Prezident Murojaatnomasida ta'lim-tarbiya sohasini bevosita inson kamolotiga yanada xizmat qilishini ta'minlash yo'lidagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 34 foizdan 2019 yilda 44 foizga etkazish, zamonaviy umumiy o'rta ta'lim tizimini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy maktablar va bog'chalar tashkil etish, oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, so'nggi ikki yilda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9-10 foizdan 15 foizgacha oshirishga erishildi. SHu munosabat bilan Prezident Murojaatnomasida 2019 yilda mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga etkazish va kelgusi yillarda oshirib borishga vazifasi qo'yildi.

Ijtimoiy soha jamiyat hayotida eng murakkab tarmoqlardan biri hisoblanadi. CHunki, u insonlarning nafaqat hayot kechirishi bilan bog'liq barcha omillarni o'zida aks ettiradi. SHu bilan birga, odamlarning kayfiyati, jamiyat hayotida kechadigan munosabatlarning yo'nalishlariga ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Ijtimoiy soha insonlarning oila qurishi,

farzandni dunyoga keltirishi, uni jamiyat, mamlakat, millat va xalq koriga yaraydigan qilib tarbiyalashi, fuqarolarning ish bilan ta'minlanganligi (bandligi), sifatli bilim olishi, tibbiy xizmatlardan bahramand bo'la olishi, jamiyatdagi turli sinflar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikning barqarorligi, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning amal qilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning mavjudligi, ilm-fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish hamda ulardan insonlarning farovon hayot kechirishi yo'lida samarali foydalanishini qamrab oladi.

Ijtimoiy-innovatsion faollik – jamiyat ijtimoiy tuzilmasi tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga erishishiga kafil bo'ladi. Bu jarayondagi etakchi kuchlardan biri – yoshlardir. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning bugungi yoshlari o'zlarining dunyoqarashlari, yangiliklarga va bunyodkorlikka intiluvchanligi, jamiyatimiz, mamlakatimiz hamda dunyoda kechayotgan jarayonlarga o'zlarining mustaqil qarashlari, o'z hayotlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, muammolarni o'z kuchi va mehnat iqtidoriga tayangan holda echishga intiluvchanligi bilan o'zlarining o'tmishdoshlari bo'lgan sobiq Ittifoq davri yoshlaridan tubdan farq qiladilar. Ayniqsa keyingi 4–5 yil davomida qurilayotgan Yangi O'zbekistonning yosh avlodlari shakllanayotganligini ta'kidlash to'g'ri bo'ladi. Bunda Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev o'zining «Yangi O'zbekiston strategiyasi» asarida quyidagicha yozganlar: «YOsh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar, etuk mutaxassislar etib tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni olib bormoqdamiz»[1]. Bularning natijasi o'laroq, bugun yoshlarimiz zamonaviy fan, texnika, texnologiyalarni o'zlashtirish, ularni amaliyotga tatbiq etib mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qildirish, mashhur oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishda o'z tengqurlari orasida etakchilik qilayotganliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrashdagi mustaqil qarashlari bilan YANGI O'zbekistonning yangi avlodlari sifatida shakllanmoqdalar. Ular mustaqil shijoati, eng asosiysi ular dunyoqarashlari va tafakkurlarining dunyo hamda mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarga monand rivojlanib borayotganligi bilan Yangi O'zbekistonning yangi avlodlari sifatida namoyon bo'layotganligidir. Ularning etakchilik qilishiga undaydigan motivlar jamiyatda aholining yosh kuchi yangilikka intiluvchanligi va bunyodkorlikka moyilligi kabilarda o'z ifodasini topadi. Mazkur xususiyatlar o'zlari faoliyat yuritayotgan sohalarda innovatsiyalar yaratishga va amaliyotga tatbiq etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy mobillik ijtimoiy hamjihatlik va iqtisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy mobillikning yuqori darajasi yanada dinamik va innovatsion jamiyatga olib kelishi mumkin, chunki shaxslar kelib chiqishidan qat'i nazar, o'z imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishga qodir. Ushbu tadqiqot barcha fuqarolar uchun yuqoriga qarab harakatlanishni qo'llab-quvvatlaydigan muhitlarni qanday yaratishni kengroq tushunishga yordam beradi.

Ko'pgina jamiyatlarda ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar kuchayib bormoqda, bu esa kam ta'minlangan odamlarning yuqori mobillikka erishishini tobora qiyinlashtirmoqda. Ushbu tadqiqot o'z vaqtida va o'rinli, chunki u ta'lim va psixologiya tengsizlik oqibatlarini

qanday yumshatishini o'rganish orqali ushbu muammolarni hal qilishga intiladi. Ta'limning ijtimoiy mobillikdagi rolini tushunish ta'lim tizimlarida tenglikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu tadqiqot mavjud pedagogik amaliyotdagi kamchiliklar va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi, barcha talabalar muvaffaqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Yoshlar rivojlanishning muhim bosqichida, bunda aralashuvlar uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu demografik holatga e'tibor qaratib, tadqiqot ijtimoiy mobillikni rivojlantirish uchun erta va barqaror yordam muhimligini ta'kidlaydi.

Pedagogika va psixologiyaning kesishishi ijtimoiy mobillikka ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tushunish imkonini beradi. Ushbu fanlararo yondashuv tahlilni boyitadi va ta'lim va psixologik ehtiyojlarni qondiradigan yaxlit echimlarni taklif qiladi.

Ijtimoiy harakatlanish global muammo bo'lib, turli mamlakatlar noyob muammolar va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqot ilg'or tajribalar va butun dunyo bo'ylab ijtimoiy mobillikni oshirish bo'yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlar bo'yicha xalqaro munozaralarga hissa qo'shadi.

Yoshlarimizning ilm-fan, texnika va texnologiya sohasidagi innovatsion jarayonlarda ishtiroki ham yildan-yilga oshib bormoqda. Innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli «2019–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonda «Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalari bilan o'zaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmayotgani bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlar va vazifalarga erishish imkonini bermayotganligi» ko'rsatilgan va masalani hal qilish maqsadida strategiyada asosiy vazifalar belgilab berilgan.

SHu jumladan, «Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish – strategiyaning bosh maqsadidir»⁴⁸, deb yozilgan. Yoshlar esa ana shu kapitalning tarkibiy qismini tashkil etadi. SHu ma'noda, yoshlar ongi, dunyoqarashi va amaliy faoliyatlarida innovatsion tafakkurni rivojlantirish farmonda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga imkon beradi. Farmonda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda yoshlarimizning faol ishtirok etishi, qarorlarning samarali amalga oshirishini ta'minlaydi. YOshlarning innovatsion jarayonlarda faol ishtirokiga erishmasdan turib taraqqiyotimiz oldida turgan vazifalarni ijobiy echib bo'lmaydi. Fikrimizcha: a) yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish; b) ularning intellektual salohiyatini zamon talablari darajasida rivojlantirish; v) jamiyatda ijtimoiylashuviga erishish, ya'ni yagona maqsad yo'lida turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalar bilan hamkorligini mustahkamlash; g) innovatsion g'oyalarning moddiy jihatdan aniq ta'minlanishiga

⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сонли «2019–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида»ги Фармони. // «Халқ сўзи». 2018 йил 21 сентябрь.

erishish; d) yaratilgan innovatsion g'oyalarning amaliyotga tatbiq qilinishini tashkil qilish masalasi oldimizda ko'ndalang turibdi.

Xo'sh, tafakkur bilan innovatsiyaning qanday aloqasi bor?

«Tafakkur – ob'ektiv olam in'ikosining oliy shakli; ob'ektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushuncha, hukm, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo'ladi... ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi»[2].

Ma'lumki, yuksak tafakkurga ega insongina innovatsion g'oyalarni, yangi fikrlarni shakllantirishi va ularning amaliyotdagi ahamiyatini tushunishi mumkin. Milliy va umuminsoniyat taraqqiyotiga daxldor g'oyalar, kashfiyotlar, jahon xalqlarining buyuk asarlari yuksak tafakkurning mahsulidir. Insonni chinakam shaxs bo'lib shakllanishiga undaydigan, uning oldidagi jumboqlarining echimlari haqida mulohazalar, qarashlar va g'oyalarni o'ziga mujassam etadigan falsafa ham tafakkurning mahsuli sanaladi. Demak, innovatsiya bilan tafakkur obrazli qilib aytganda tanganing ikki tomoni, deyish mumkin. Tafakkursiz innovatsiyaning tasavvur etib bo'lmaganidek, tafakkurni ham innovatsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, yoshlarda innovatsion tafakkurni rivojlantirish orqaligina ularda ijtimoiy faollikni rivojlantirish mumkin. Bunday tafakkur o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki oiladagi muhit, ota va onadagi yangilikka, hayotda sodir bo'ladigan turli hodisa va jarayonlarga qiziqish, echimini izlashga moyillik ijobiy ta'sirini o'tkazadi. SHu bilan birga, innovatsion tafakkur shakllanishi va rivojlanishining yana bir omili yoshlarning badiiy va san'at asarlarini o'qishi, o'rganishi, o'ziga zarur bo'ladigan xulosalarni yarata bilishga intilishdir. Xo'sh, bu yo'nalishdagi asosiy muammolar nimadan iborat? Bir tomondan, innovatsion g'oyalarga, ixtirolarga ehtiyoj oshib borayotgan bugungi kunda yoshlarning badiiy va san'at asarlariga bo'lgan qiziqishlari «so'nib» borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning o'rnini internet, mobil telefon va shu yo'nalishdagi ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari egallayotganligi tashvishga solmoqda. Inson kitobni o'qib, voqea va jarayonlar haqida mulohaza yuritib, yaxshi xulosalar hamda yangi fikrlarga ega bo'la oladi. Ommaviy axborot vositalari insonda voqealar yoki jarayonlarni «mexanik» tarzda etkazadi, ammo mushohada uchun vaqt «qoldirmaydi», uning tezligi kitob o'qishdan oladigan ma'naviy ozuqani bera olmaydi. Baribir, mazkur virtual g'oyalar yoshlar o'rtasida ommalashib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: «O'zbekiston», 2021. – B. 54-55.
2. Falsafa. Ensiklopedik lug'at. - Toshkent: «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi», 2010. – B. 256.
3. Ramazonov, D. J. (2022). Modelirovanie mexanizmov samoupravleniya studentov. Science and Education, 3(4), 1003-1011.
4. Ramazonov, J. (2022). shaxsda refleksiya darajalarining o'sib borish dinamikasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. sentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz), 10(10).
5. Jumayevich, R. Z., & Djalolovich, R. J. (2023, July). TALABALARNING O'QUV JARAYONIGA MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 7, pp. 85-93).

